

KASB-HUNAR TA'LIMI MAZMUNIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**Yuldasheva Nozima To'lqin qizi**

**Norboyeva Husnobod Ulug'bek qizi**

*Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani*

*1-son kasb-hunar maktabi umumta'lim fani o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kasbiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishi, kasb-hunar ta'limi mazmuniga qo'yiladigan talablar, kasb-hunar ta'limi uzviyligi, shuningdek kasb-hunar ta'limining umumdidaktik tamoyillari haqida malumot berilgan.*

**Kalif so'zlar:** *ta'lim, kasb, talab, kasb-hunar ta'limi, o'quv material, tamoyil, tahlil, uzviylik, mazmun, pedagogika.*

Kasbiy talim mazmunining hajmi kishilik jamiyati tajribalari, madaniyati ko'lamiga, xarakteri esa uning darajasi, yo'nalishi va eng avvalo jamiyat tuzilmasiga bog'liq bo'ladi. Bundan jamiyat maqsadi, talab va ehtiyojlari, orzu-umidlariga binoan kasbiy talim-tarbiya mazmuni, uning tarkibi va yo'nalishi kelib chiqadi.

Kasbiy ta'lim jarayonida o'quvchilar ta'lim (o'quv material) mazmunini o'zlashtiradilar. Bu mazmun qancha kam va tushunarli bo'lsa, kasbiy talim-tarbiya jarayoni ham unga mos holda qisqa bo'ladi. Lekin bu jarayon samaradorligi aniq boshlang'ich va so'nggi holatiga ko'ra baholanadi. Umuman, talim-tarbiya, shuningdek, kasb-hunar talimi jarayoni murakkab jarayonlar turkumiga mansubligi etirof etilgan. Chunki, o'quv materialining o'zlashtirilishini ta'min etuvchi psixik jarayonlarni bevosita kuzatish imkoniyati mavjud emas. Ular to'g'risida o'quvchilarning tashqi ko'rinishlari (xaktti-harakatlari) va natijaga binoan xulosa chiqarish mumkin xolos. Shuning uchun ham kasb –hunar talimining mohiyatini tushunish uning qonuniyatlari va qoidalarini bilishni talab etadi.

Biz kasbiy ta'lim mazmuni deganda pedagogik tilda o'z ifodasini topgan jamiyat to'plagan tajribalarni tushunamiz. U bir paytning o'ziga ta'lim maqsadlari o'zlashtirish obyekti, talim –tarbiya natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Kasb –hunar ta'limi jarayonida maqsad, mazmun, o'zlashtirish qonuniyatlariga mos aniq maqsadlar shakida o'quvchilar oldiga vazifa sifatida qo'yiladi. O'quvchilar vazifalarning mohiyatini anglab, unga mos o'quv bilish faoliyatini amalga oshiradilar. Natijada o'quvchilarning ongli, faol, mustaqil o'quv bilish faoliyati orqali o'quv materialini o'zlashtirilishiga erishiladi.

Ta'limda uzviylik o'quv predmetining tashkiliy qismlarini to'g'ri nisbati va zaruriy bog'liqligini tamin etadi. O'quv materialining joylashishi va bu materialning o'zlashtirish usullarini tanlashdagi uzviylik quyidagi ikki omilni hisobga olish bilan amalga oshiriladi:

- Ushbu o'quv predmeti tegishli fan mazmuni mantiqi hamda bilimlarni o'zlashtirish jarayonining qonuniyatlarini, fanning mazmuni va mantiqi o'quv predmetining uzviyligini tamin etishda muhim ahamiyat kasb etadi: tushuncha, qonunlar va dalillar, o'quv predmetining mazmunining o'zagi hisoblanib ketma-ket joylashadi va o'rganilayotgan sohaga oid bilimlarning kengayib borishini taminlaydi, oldingilari keyingilari bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

- Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining qonuniyatlari omili ilmiy bilimlari to'g'ridan-to'g'ri o'quv predmeti mazmuni sifatida talqin etilishiga yo'l qo'ymaydi, unga didaktik ishlov berishni talab etadi. Shunday qilib, uzviylik faqatgina to'g'ri chiziqli emas, balki o'quv materialini konsentrik joylashuvida ham amalga oshiriladi. Tushunchalarni keng va chuqur aloqadorligini o'rganish mazmunini boyitishga uni o'zgartirish shakllarining uzviyligini tamin etadi.

Uzviylik alohida o'quv predmetlarinigina emas, balki turli o'quv predmetlarining o'zaro munosabatlarini ham qamrab olishi zarur. Buning uchun turli o'quv predmetlarini o'rganishda obyektlarining turli jihatlarini obyektiv aloqadorligi asos hisoblanadi.

Ta'lim mazmuni avval DTS (TTS), so'ngra o'quv reja va dasturi shaklida loyixalashtiriladi. Ta'lim mazmuni ta'lim jarayonining asosiy elementi (tashkil etuvchi komponenti)ni o'zlashtirish natijasida ijtimoiy maqsadlarga erishiladi. O'zlashtirilishi zarur bo'lgan ijtimoiy madaniy tajribaning tavsifi va hajmi aniq shart-sharoit, makon, zamon, shuningdek talim muassasasining turi va darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim mazmunini tashkil etuvchi tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

a) samarali amaliy faoliyat tajribasi, ya'ni mehnat, iqtisodiyot, siyosat ijtimoiy va boshqa sohalaridagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish;

b) bilish tajribasi, atrof olam rivojlanishi qonuniyatlarini anglash metodlari va natijalari;

v) umumiy maqsadlarga erishish jarayonidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirlar tajribasi;

g) ahloqiy etik tajriba;

d) manaviy-madaniy tajriba va shu kabilar.

O'qitish mazmuni muayyan ta'lim muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida o'zlashtiriladi. O'qitish mazmunining tuzilmasi, ya'ni turli elementlarning o'zaro munosabatlari, ketma-ketligi, davomiyligini o'quv rejasi aniqlab beradi. Shu paytgacha o'qitish mazmuni bajariladigan vazifalarning murakkablik darajasi va mazmuniga binoan aniqlanadi.

Masalan, umumiy ta'limning asosiy vazifasi insonni har tomonlama rivojlantirish, hayot va mehnat, kasb tanlashga va kelgusida kasb-hunar sir-sinoatlarini o'rganishga tayyorlashdan iborat.

Aniq kasb (ixtisoslik) bo'yicha talim mazmunini integrativ yondashuv asosida tanlab olishda uning qaysi soha bo'yicha ishlab chiqarishga mansubligi hisobga olinadi. Integrativ yondashuv asosida kasb-hunar talimi mazmunini tanlab olishda meyoriy asos tasniflagich va DTS, TTS hisoblanadi.

Demak, kasb-hunar ta'limi mazmunini tanlab olishda dastlabki asos kasb-hunar turi hisoblanadi. Ajrati b olingan talim mazmuni yuqoridan pastga tomon tahlil etiladi. Yuqorigi qatlam sohaga va alohida ishlab chiqarish yoki faoliyat ko'rishlariga mos bo'ladi. O'rta qatlam tutash kasblarga to'g'ri keladi: pastki qatlam esa alohida kasblar, ixtisosliklarga to'g'ri keladi. Tahlil borishida eng avval umumiy ta'lim mazmuni, keyin xususiy mazmun, ya'ni kasb-hunarning o'ziga tegishli mazmuni tanlab olinadi. Bunday deduktiv taxlil mazmunining unifikatsiyalashgan qismlarini ajratib olib, kasbiy talim mazmunini ilmiy asosda ma'lum tizim yoki tuzilmaga keltirish imkonini beradi. Bu yondashuv o'quv dasturini ishlab chiqish (tuzish) imkonini beradi.

Bloklar mazmunini tanlab olishda har bir oldingi blok keyingisiga tayanch sifatida qarab kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Bu, o'z navbatida, uzviylik va yaxlitlikni taminlashga xizmat qiladi. Shuningdek kasb-hunar pedagogikasida kasb-hunar talimining xususiy prinsiplariga ham asoslaniladi. Chunki bu prinsiplar kasb-hunar talimining o'ziga xos jihatlarini hisobga olib, umumdidaktik prinsiplar bilan uyg'unlikda qo'llaniladi.

Umumdidaktik tamoyillar bilan pedagogik jarayon qonunlari o'zaro aloqada bo'lib, mazkur aloqa o'zining spetsifik xususiyatlariga egadir. Ularning asosiylarini ko'rib chiqamiz.

Politexnik tamoyil. Politexnik bilim zamonaviy ishlab chiqarish tizimining ilmiy asoslarini egallashni nazarda tutib, shu bilimlar asosida umumkasbiy politexnik va maxsus bilimlar shakllantiriladi.

Politexnik tamoyillarni o'qitishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim.

- a) Asosiy yo'nalishdagi rivojlangan texnika va ilmni o'qitish;
- b) bir-biri bilan o'zaro bog'langan o'quv material tizimini tashkil etish;

v) O'rganilayotgan fan asoslari borasidagi bilimlarni amaliyotda qo'llash;

g) Ta'lim berishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish;

d) Ta'lim oluvchilar qiziqishlarini qondirirish;

e) Kasbiy bilim berish umumta'lim bilimlariga tayanish;

j) O'quv materialining turg'un bo'lishiga erishish;

z) O'quv mavzularining ketma-ketligiga erishish;

Amaliyot va nazariyaning o'zaro bog'liqligi tamoyili. O'quv jarayonida nazariy va amaliy bilimning o'zaro aloqadorligiga tayanish va o'quv predmetining asosiy maqsadi o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash quyidagi shartlarga amal qilishga bog'liq.

a) nazariy bilimlarning amaliyotda sinalishi;

b) ixtiyoriy ish jarayonida sohaviy bilimlarning qo'llanilishi;

v) ishchilarni samarali o'qitish omili kasbiy ishlab chiqarish talabiga muvofiq kasbiy bilim berish ekanligini yodda tutish;

g) bilimlarni o'zaro malakaviy bog'lashda gorizontal va vertikal yo'ldan foydalanish.

O'quv jarayonida mutaxassis faoliyatini modellashtirish tamoyili. Modellashtirish orqali mazmun va maqsadlarni isbotlash uchun avval oson bilimlarni o'zlashtirish, o'qitish metodlarini o'quv rejasi va o'quv dasturi talablari asosida tanlash. O'quv jarayonida keng tarmoqli ishchi faoliyati quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

a) bilim va malakani politexnik yo'naltirish;

b) ko'chirib (integrsiya asosida) o'qitish jarayonida gradatsiyaning o'rni;

v) ko'chirib o'qitish jarayoni.

Mobillik tamoyili. Bu prinsip shaxsning texnik bilimlari tez o'zlashtirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ishchining ijodiy ish xarakteri, dunyoqarashining kengligi muammolarni anglab olish va ishlab chiqarish rivojlanishini ko'ra bilish bilan belgilanadi.

Tartibli ketma – ketlik tamoyili quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv jarayonini rejalashtirish;

- o'quv jarayonida ketma – ketlikga amal qilish;

- deduktiv o'qitish metodlarini qo'llash;

- umumiy ta'lim bilimlarini tayanch qilib olish;

- o'quv materiallarini o'zaro bog'liq holda tartibli berib borish.

Atrof muxitni tashkil etish tamoyili. Atrof muhit deganda avvalom bor bilim yurtida o'quv qurollari didaktik vositalar bazasini yaratish va texnik,

texnologik, ekologik talablarga rioya qilish shu bilan birga mehnat muhofazasini taminlash va ta'lim oluvchilarning sog'liqlarini saqlash borasida muayyan sharoitlarni yaratish lozimligi tushuniladi.

Kompyuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyili. Hozirgi vaqtda kompyuterlar hayotimizning turli sohalariga kirib kelmoqda. Shu bois ushbu tamoyil muhim ahamiyatga ega. Kompyuterlar pedagogik sohada ham keng qo'llanilmoqda. Ta'lim oluvchilar kompyuterlar yordamida mavzuni kengroq, qiziqarliroq o'zlashtiradilar va tushuntirilayotgan mavzuni ekranda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.S. Sayidahmedov N. N. Indiaminov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.
2. Podlasiy I.P. Pedagogika. – M.: Vados, 2003. y.
3. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. - T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.
4. Sharipov Sh. va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma). -T.:TD'U, 2006 y.
5. Nishonaliyev U.N., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007
6. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009.